



“ФАН ВА ТАЪЛИМ ИНТЕГРАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ”

**Республика илмий-амалий семинар
Материаллари**

2024 йил 20 апрель

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ФАН ВА ТАЪЛИМ ИНТЕГРАЦИЯСИНING
НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ”**

**МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ СЕМИНАРИ**

МАТЕРИАЛЛАРИ

(2024 йил 20 апрель)

ТОШКЕНТ – 2024

texnologiyalari asosida masalalarni mustaqil ravishda yechish hamda o'z g'oya va yechimlarini jamoada himoya qilish ko'nikmasini egallaydilar.

Loyiha ishini bajarishdan asosiy maqsad o'tilgan mavzu yuzasidan ko'zda tutilgan muayyan fan bo'yicha ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlardan olingan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish va ushbu bilimlarini muayyan topshiriqni yechishda qo'llashdir. Loyiha ishini bajarishda muhim masalalardan biri uning mavzusini to'g'ri tanlashdir. Loyiha ishining mavzulari mazkur fanning o'quv vazifasiga javob berishi bilan bu qatorda hayotiy ko'nikmalar va fanning dolzarb muammolari bilan bog'liq bo'lishi lozim. Loyiha ishilar mavzularining amaliyligi - bu avvalambor ularning ilmiyligi, zamonaviyligi va o'quvchilarda mustaqil ijodiy ishga ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirilganligidir.

Loyiha ishining asosiy vazifalari:

1. O'quv jarayonida egallangan bilimlarini namoyn etish, o'z fikrini himoya qila olish, berilgan savollarga asoslangan javob berish, bahslashish, muzokaralarda qatnashish qobiliyatini namoyish etishga ko'rsatish;

2. Mustaqil fikrlash va eng maqbul yechimlarni qabul qilishga o'rgatish;

3. O'tilgan mavzuga doir ma'lumotlardan foydalanish ko'nikmalarini ko'rsatish;

4. Mustaqil ishlash, ma'lumotlarni izlash, yig'ish, qayta ishlash va saqlashda axborot texnologiyalaridan foydalana olish, loyihalash jarayonini to'liq his etishga o'rgatish;

5. Guruh bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, maqsadga erishish uchun tashabbus ko'rsatish, masalalarni yechishda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatish.

Demak, loyiha ishi bu biror o'ziga xos mahsulot, xizmat yoki natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan vaqtinchalik harakatlar majmuasi. U ma'lum bir belgilangan jadval, narx va boshqa parametrlari doirasida maxsus maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi.

Aniq fanlarni o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi loyiha ishi mavzularidan misollar

- Sehrli kvadratlar tuzish
- Son va raqam qatnashgan topishmoqlar
- Mening orzuyimdagi uy
- Mening orzuyimdagi maktab
- Charxpalak
- Men bobomdan necha yosh kichikman
- Bir kunim mening umrim
- Darvozabon va hujumchi
- Men sevgan kasb va boshqalar.

Shu borada, har bir loyihani tuzganda, loyiha barqarorligini oldindan o'ylash va uni o'quvchilar ongiga singdirib borish juda muhim. O'quvchilar loyiha ishlarini tugatgach albatta quyidagi savollarga javob topishlari lozim bo'ladi: Unga nima bo'ladi? Kim bu ishni davom ettiradi? U qayerdan keldi? Qanday paydo bo'ldi? Yana davomi bormi? Shu kabi savollar ustida bosh qotirish kerak va loyiha tugagach uning o'rnida bo'shliq paydo bo'lib qolmaslikka intilish kerak.

Har bir loyiha ishining davomiyligi bo'ladi. Turli adabiyotlarda bunday davrlar turlicha ataladi, lekin umuman olganda har bir loyihaning davomiyligi 4 bosqichga bo'linadi. Ular boshlanish, rejalashtirish, ijro etish va yakunlash. Bu bosqichlarni amalga oshirish davomida monitoring va nazorat qilish jarayoni ham doim amalga oshirishi kerak bo'ladi.

Demak, bugungi kunda ta'lim sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Aniq fanlarni o'qitishda o'quvchilarga loyiha ishlarini bajartirishda mavzuga doir bilimlarni yangicha o'zlashtirish, ta'lim sifatini baholash, ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxsini har tomonlama shakllantirish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

I. Ismailova Z.K., Maxsudov P.M., Ergashev O. K. "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" Darslik. Toshkent – 2020

BOJXONA INSTITUTI VA XIZMATLARINING FALSAFIY TAHLILI

Shukurov Begzod Xazratkulovich – O'zbekiston Respublikasi IIB Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi;

Bugun globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillarga keng ta'sir qilib, milliy mosabatlar va aloqalar doiralarini mislsiz kengaytirib yubormoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalar eng integratsiyaning, ilmiy-texnik rivojlanish va ijtimoiy hayotni modernizatsiyalashning kafolati hisoblanadi. Bojxona instituti va xizmatlari ham ushbu tashqi aloqalarning ta'sirida, obyektiv sharoitlar sifatida, yuzaga kelgan. Tashqi iqtisodiy aloqalar o'z navbatida, kishilar, transport vositalari, tovar va mahsulotlar, migratsiya, tajriba almashishlar kabi qator sohalarni ham o'z ichiga oladi. Bu sohalar maxsus xizmatlarga muhtoj, chunki tashqi iqtisodiy aloqalar subyekti o'zi chiqarayotgan davlatdagi huquq va huquqiy normalarni, sotsial talablarni bilavermaydi. Bunday hol uning zaruriyatini ishlatish va faoliyat yuritishiga to'siq bo'ladi. Demak, bojxona institutlari bunday sharoitlarga erkin iqtisodiy tashqi aloqalarini yo'lga qo'yishga yordam beradi. Ular g'ayriqonuniy talablarga to'siq bo'lib, tashqi iqtisodiy aloqalarni xalqaro huquq va milliy huquqiy tizim talablariga muvofiq tashkil etilishi va olib borilishi tarafdoridir.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarining deterministik ta'sirida mehnat jarayonlarini tashkil etish, ijtimoiy himoya kabilar alohida o'rin tutadi. Demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan barcha davlatlar ushbu omillarni o'zining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati markaziga qo'yan. Ularning huquq va huquqiy madaniyat bilan aloqalari Konstitutsiya va Mehnat Kodekslari orqali belgilanadi. Shuningdek, mehnat jarayonlarini huquqiy yo'lga qo'yish va regulatsiya qilishda qonunosti talablari, mahkamalarning ichki tartiblari, ustav va nizomlari ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, ijtimoiy himoya (nafaqa berish, kasallik paytida tibbiy, moddiy yordamlar ko'rsatish, talabalarga stipendiyalar va davlat grantlari ajratish, yosh bolalarning yozgi ta'tilini uyushtirish, kasaba uyushmalarining turli sotsial yordamlari) tizimida kasaba uyushmalarining roli benihoya katta. Mehnat jarayonlarini tashkil etishdan tortib, to'g'ri uyda tibbiy yordamlar ko'rsatishgacha kasaba uyushmalari uyushtirishi, maxsus xodimlarini yordamga jalb etishi mumkin. Bunday yordamlarni ko'rsatish avvalo gumanistik huquq talablariga muvofiq amalga oshiriladi¹⁰³.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning deterministik ta'siri bugun innovatsion izlanishlar va ishlanmalar, ilmiy-texnik yangiliklarni hayotga tatbiq etish va bu boradagi tajribalarni o'zlashtirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ilmiy-texnik yangiliklar butun ijtimoiy hayotga ta'sir qarayotganida ushbu jarayonlardan huquq fenomeni va jamiyatning huquqiy madaniyati chekkada qolmaydi. Bir qarashda huquq va ilmiy-texnik yangiliklar bir birlaridan uzoq sohalarda, faoliyat sharoitlaridir. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni anglash uchun umuman ilmiy jarayonlarning o'ziga, sharoitiga nazar tashlash darkor. Bugun e'tirof etilayotgan va globallashayotgan ijtimoiy hayotning atributi sifatida qaralayotgan ilmiy taraqqiyot, ilmiy innovatsion izlanishlar va ishlanmalar o'zidan o'zi bizning hayotimizga kirib kelayotgani yo'q, ular negizida jamiyatda qaror topgan yoki ijtimoiy hayot strategiyasiga aylangan sotsial normalar yotadi. Bu sotsial normalar goh qonunidir, goh axloqiy imperativ xususiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan ular huquq fenomeniga oid voqelikdir. Demak, ilmiy-texnik taraqqiyot va ilmiy innovatsion izlanishlar, ishlanmalar ma'lum bir huquqiy makon mahsullaridir. Masalan, O'zbekiston Respublikasida chet mamlakatlardan keltiriladigan avtomobillarga ma'lum bir talablar qo'yiladi. "Rastamoshka" degan narsa ana shunday yuridik kuchga ega voqelik hisoblanadi. Agar ushbu voqelik bekor qilinsa, respublika bir qator muammolarga duch keladi: birinchidan, milliy

¹⁰³ Каранг: Байрамов Ф.В. Гуманистическое право как философское обоснование формирующейся концепции права спортсменов паралимпийцев // Ж. Проблемы экономики и юридической практики - Москва: 2010, № 2. С.43-49

<i>Otaeva Oysuluv Sobirovna. STUDY OF OCCASIONAL VOCABULARY IN RUSSIAN LINGUISTICS.....</i>	132
<i>Тиллаева Азиза Икрамовна. ТОЛКОВЫЕ НОРМАТИВНЫЕ СЛОВАРИ.....</i>	134
<i>Bekmetova Muattar Matnazar qizi. XANTAL TURLARINING BOTANIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI.....</i>	136
<i>Madirimova Hurmatoy Qadamboy qizi. DORIVOR LAVANDA (LAVANDULA ANGUSTIFOLIA MILL) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARNI O'RGANISH.....</i>	138
<i>Rajabova Shohista Zohidovna. GUJUM DARAXTI HAQIDA MA'LUMOTLAR.....</i>	139
<i>Xolliyeva Yoqutjon Ollabergan qizi. DORIVOR MAVRAK (SALVIA OFFICINALIS) O'SIMLIGINING MORFO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI...</i>	141
<i>Xajiyev R.K., Qalandarov S.M. O'ZBEKISTON HUDUDIDA O'SADIGAN ISTE'MOLGA YAROQLI QO'ZIQORINLARNING FOYDALI HUSUSIYATLARI VA ZAHARLI QO'ZIQORINLARDAN ZAHARLANGANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM.....</i>	143
<i>Avazov Ozod Rajabboyevich. XORAZM VILOYATI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI TAHLILI.....</i>	145
<i>Sobirov Dilshod Solayevich. TALABA VA YOSHLARNI O'QITISHDA LOYIHA ISHLARI BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.....</i>	147
<i>Shukurov Begzod Xazratkulovich. BOJXONA INSTITUTI VA XIZMATLARINING FALSAFIY TAHLILI.....</i>	149
<i>Киличев Фарход Давлатярович. ГАРБ АНТИК ДАВР ФАЛСАФАСИ ВА УНДА ИЛК ИЛМИЙ МАТЕМАТИК ДУНЁҚАРАШЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ.....</i>	150
<i>Абдуллаев Баҳодир Исмаилович. ТАЛАБА-ЁШЛАРДА МАЪНАВИЙ-МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ.....</i>	152
<i>Abdusharipova Guljonoy Qobul qizi. AZOLLA (AZOLLA CAROLINIANA WILLD) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI.....</i>	153
<i>Saurov Ravshonbek Ruslanbek o'g'li. DEMOKRATIYA GENEZISINING FALSAFIY-KRATOLOGIK ASOSLARI.....</i>	155
<i>Vaxabova Gulshan Vafogul qizi. BOLALARNING KICHIK YOSHLARIDAN BOSHLAB MUOMILA VA MULOQAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH.....</i>	157
<i>Abdullayeva Iroda G'anijanovna. HOFIZ SHEROZIY IJODI XORIJIY TADQIQOTLAR KO'ZGUSIDA.....</i>	159
<i>Rajapova E.B. TADBIRKORLIK VA UNING FALSAFIY-MADANIY FUNKSIYALARI.....</i>	161
<i>Рахимова Мўминахон Зокиржоновна, Хасанов Бобур Рахимбергенович. КАСБ ТАНЛАШ МУРАККАБ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖАРАЁН.....</i>	163
<i>Rajapova E.B. INNOVATSION IZLANISHLAR VA ILMIY-TEXNIK KASHFIYOTLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....</i>	165
<i>Мингбаев Раҳим Хужаевич ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХАЛҚАРО ЭКОЛОГИК СИЁСАТИНИНГ УМУМИНСОНИЙ ДЕМОКРАТИК ТАМОЙИЛЛАРИ.....</i>	166
<i>Алишер Тожиёв Султанназиревич. ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ.....</i>	168
<i>Mingboyev Raxim Xo'jayevich. "GUMANITAR HUQUQ" TUSHUNCHASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI.....</i>	171
<i>Yunisova Dilnoza Alisher qizi. O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.....</i>	173
<i>Samanova Shaxlo Boxtiyarovna. EKOLOGIK ETIKA DILEMMASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI.....</i>	174